

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.486(575.172)

XOSHIMOV BAXROM BAXODIROVICH

**HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARI BOZORINI SAMARALI
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I- HUDUDDAGI TURIZM XIZMATLARI BOZORINI	
BOB RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1. Turizm xizmatlari bozorining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari.....	12
1.2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning xususiyatlari va tamoyillari.....	23
1.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm bozorini rivojlantirishda xorij tajribasini qo‘llash imkoniyatlari.....	32
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	54
II- TURIZM XIZMATLARI BOZORINI	
BOB RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	56
2.1. Turizm xizmatlari bozorining rivojlanishini tahlil qilishda ichki turizm ko‘rsatkichlaridan foydalanish.....	56
2.2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirishning ekonometrik tadqiqoti.....	68
2.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasining madaniy yodgorliklari va turizm resurslarining respublika turizm rivojiga ta’siri.....	84
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	98
III- QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM	
BOB XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING	
USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	100
3.1. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	100
3.2. Hududiy turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari.....	112
3.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish istiqbollari.....	126
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	138
XULOSA.....	139
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	142

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon turizm bozorida raqobatning keskin kuchayishi natijasida davlatlar tomonidan sayyohlarni jalb qilishni yangi va samarali yo‘llarining ahamiyati ortib bormoqda. Turizm sohasi bugungi kunda jahon iqtisodiyotida muhim rol o‘ynayotgan sohalardan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi, balki madaniy almashinuv, xalqaro do‘stona aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Turizm sohasining rivojlanishi ko‘p jihatdan unda taklif etilayotgan mahsulotlar va xizmatlarning xilma-xilligi, sifati va jozibadorligiga bog‘liq. 2023 yilda xalqaro sayyohlar soni pandemiyadan oldingi darajadan 89 foizga, 2024 yil yanvar-noyabr oylarida esa 98 foizga yetdi. 2023 yilgi qayta ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro turizm eksportidan tushgan daromad 1,8 trillion AQSh dollarini tashkil etdi¹. 2023 yilda turizm yalpi ichki mahsuloti pandemiyadan oldingi darajaga ko‘tarilib, taxminan 3,4 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu global yalpi ichki mahsulotning 3 foiziga teng. Shu nuqtai nazardan, turizm mahsulotlarining nazariy asoslarini o‘rganish va ularning turlarini tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Jahon turizm bozorida sohani rivojlantirish, turizmning yangi yo‘nalishlarini shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar asosida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish, bu borada turizm sohasining yangi qirralarini o‘rganishga qaratilgan maqsadli ilmiy-tadqiqotlar hozirda olib borilmoqda. Turizm xizmatlari bozorini shakllantirishda ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, hududlar kesimida turizmning yangi shakllarini barqaror rivojlantirish, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini hamda strategiyasini ishlab chiqish, turizmni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish hamda maqsadli rejalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratish. Bunday xalatda xalqaro turizmni shaklini rivojlantirish borasida hududlarda turizm xizmatlar bozorini samarali rivojlantirish muhim omillar qatoriga kiritiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini yuqori suratlar bilan rivojlantirish, hududlarga xorijiy turistlarni keng jalb qilish, ularga yetarlicha zarur

¹ <https://www.unwto.org/>

shart-sharoitlar yaratish, turizm resurslaridan samarali foydalangan holda hududlarni o‘zaro bog‘lovchi turizm xizmatlarini yanada kengaytirish muhim ahamiyatga ega. «Turizmda topilgan daromadning 30 foizi aholining qo‘liga ish haqi bo‘lib boradi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmaydi»².

“Darhaqiqat, hududlarda turistik xizmatlar bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish tegishli dasturlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladigan mukammal ilmiy tadqiqotlar zarurligini»³ ko‘rsatadi. Belgilab olingan reja asosida samarali shakllantirish mintaqalarda turizmni barqaror boshqarishning tashkiliy, iqtisodiy va uslubiy yo‘llarini takomillashtirishni, turizm korxonalarini barqaror rivojlantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishni, mintaqalarda turizmni sohasini tubdan shakllantirish modelini, ekonometrik modelni takomillashtirishni va turizmni samarali rivojlanishini prognoz qilishni talab qiladi. Shu sababli, dolzarb masalalar qatorida-hududlarda turistik xizmatlar bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni talab qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 yanvar PF-9 Respublikaga chet yillik sayyohlar oqimini keskin oshirish va ichki turizm sohasini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2019 yil 5 yanvar 5611 yil 2023 yil 26 apreldagi O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PF-26-sonli qarorlari PQ-135 Respublikaning sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish va mahalliy va xorijiy sayyohlar sonini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»⁴ 2022 yil 30 apreldagi PQ-232-son «Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi «2022-2026 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 3-июндаги туризмни янада ривожлантириш бўйича устувор йўналишлари бўйича видеоселектор йиғилиши.

³ <https://base.garant.ru/403331451/1b93c134b90c6071b4dc3f495464b753/>

⁴ <https://api.ziynet.uz/uploads/books/10000014/NyPZGeF3mFbXrQp.pdf>

sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm xizmatlari bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar, jumladan, I.S.Markova, B.M.Djum'ayev, M.Sh.Valiyev, Barzikin Y, Birjakov M, Logunsova I, Afanasev O, Zemlyanuxina S. kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan⁵.

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi va turizm xizmat sifatini oshirish masalalari bir qator olimlar, jumladan, A.M.Abduvohidov, A.A.Eshtayev, M.T.Alieva, A.N.Norchaev, S.Sh.Xalilov, O.H.Xamidov, B.N.Navruz-Zoda, S.Sayfutdinov kabi olimlar va amaliyotchilarning ishlarida yoritilgan.⁶

⁵ Организационно-экономический механизм развития рынка туристских услуг доктор экономических наук Организационно-экономический механизм формирования и развития рынка бизнес-услуг: Диссертация Организационно-экономические основы развития регионального туризма в рыночной экономике

⁶ Афанасьев О.Е. Инновационные тренды в контексте глобальных угроз пандемии COVID-19: механизмы для туристской отрасли / О. Е. Афанасьев, А. В. Афанасьева // Современные проблемы сервиса и туризма, 2020. – Т. 14. – № 4. – С. 7-26.; Гунаре М. Индивидуальный туризм в ожидании перемен / М. Гунаре, О.Е. Афанасьев // Сервис в России и за рубежом, 2020. – Т. 14. – № 2(89). – С. 197-204.; Землянухина С.Г. Трансформация ценностных ориентаций населения в сфере туризма в условиях пандемии // Вестник Ассоциации вузов туризма и сервиса. – 2020. – Т. 14. – № 1. – С. 13-18; Келлер П. Влияние мировых кризисов на туризм // Вестник РМАТ. 2013. № 3. – С. 17–20.

Eshtayev A.A. O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya) – Samarqand: "Ipak yo'li" Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. 8 bet; Abduvohidov A.M., Umirova Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. - 265 b.; Голышева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Т., 2012. – 25 с.; Очилова Ф.М., Жалолитдинова Х., Нурматова С. Туризм в Узбекистане после COVID-19. //Научно-электронный журнал «Экономические и инновационные технологии», 2021. - № 1 (январь-февраль). – С. 333-341; Safarova N.N. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish: i.f.d.. dokt. dissertatsiya avtoref. – Tashkent, 2018; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом: Автореф... докт. экон. наук. – Т., 2011. – 52 с.; Hamidov O.H. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss... avtoreferati. – Samarqand, 2017.-7 b.

Hududlarda turistik xizmatlar bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha mavjud uslubiy va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda hududlarda turistik xizmatlar bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammolari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmaganligi, dissertatsiya tadqiqoti mavzusining tanlanishini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ALM-2023112123-sonli "Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida "Etno-muzey" tashkil qilish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ushbu sohadagi turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Hududdagi turizm xizmatlarini rivojlantirish va "iste'molchi turistik talab" zanjirlarini aniqlash orqali "turistik hudud"(turistik yo'nalish) tushunchasini asoslash.;

hududda turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish modellarini aniqlash;

hududda turistik xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish xususiyatlarini aniqlash, shu jumladan tartibga solishning davlat usullarini belgilash;

turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun integratsiya modelini ishlab chiqish;

hududda turizm sohasini axborot bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

mintaqada turizm bozorini tarkibni ilgari surishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellik-qal'a, Taxtako'pir va Xo'jayli tumanlarida faoliyat yuritayotgan turistik tashkilotlarning faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini hududda turistik xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli va iqtisodiy-statistik tahlil, ekspertiza usulida baholash va ekstrapolyatsiya, iqtisodiy-matematik modellash, marketing tadqiqotlari metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Taxtakopir tumanidagi Qarateran ko'li, Aydos qal'a (Aq jag'ys), Baraktam-1, Baraktam-2, Jaman qal'a, Qorg'ancha qala, Qos minar, Qilish qal'a, Mexterqal'a, Taq minar sayyohlik ob'ektlari infratuzilmasini takomillashtirish va harakat vositalarini yaxshilash asosida chet ellik sayyohlarni cho'l landshaftlari, ekologik va rekreatsion turizm hududlariga jalb qilishga asoslangan;

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (oldingi "Baday-to'qay" davlat qo'riqxonasi) - Sulton Uvays tog' tizmasi etagi va Qoratorov tog'ining o'ng tarafida, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan hududda xorijiy va mahalliy turistlar uchun ekoturlarni tashkil etish taklifi asoslangan;

Ellikqal'a tumanidagi Ayozaqal'a va Tuproqqal'a, Buran qal'a, Burli Qal'a, Dumanqal'a, Jeldikqal'a – mayin shamolli qal'a, Kichik Qirg'iz qal'a, Qavatqal'aga asosan Xorazm viloyati orqali amalga oshuvchi xorijlik turistlar oqimini Nukus shahri orqali yo'naltirish asosida turistlarning ushbu maskanlar bo'yicha sayohatlari davomiyligini uzaytirish taklifi asoslangan;

Taxtakopir tumanidagi turistik obyektlarni turistik yo'nalishlar tarkibiga kiritish, Xo'jayli tumaniga tashrif buyurayotgan xorijlik turistlarning asosan Nukus shahridagi mehmonxonalarga joylashayotganligi holatini tumanda tadbirkorlarni keng jalb qilish orqali kichik mehmon uylari sonini oshirish, mehmonxonalar va joylashtirish vositalari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasini hududiy rivojlantirishda kompleks yondashuv asosida agro, turistik, qishloq xo‘jaligi klasterlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining turizm rivojlanish holati va imkoniyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqaga tashrif buyuruvchi turistlar sonini oshirish yo‘nalishlari taklif etilgan;

turizm bozori samaradorligini oshirishda boshqarish tizimining funksiyalari asoslangan, uning faoliyati yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullar hamda ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi hamda Butunjahon Turizm Tashkiloti rasmiy ma‘lumotlari manbalaridan olingani, xulosa, taklif va tavsiyalarining hududiy va xalqaro miqyosda aprobatsiyadan o‘tkazilgani, muayyan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va takliflar hududda turizmni rivojlantirishda innovatsiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini, iqtisodiy munosabatlarni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlarini belgilaydigan iqtisodiy munosabatlar doirasida tahlil qilish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, turizm sohasini tizimli rivojlantirish samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududlarda turizm xizmatlari bozorini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

Taxtako‘pir tumanidagi Qarateran ko‘li, Aydos qal’a, Baraktam-1, Baraktam-2, Jaman qal’a, Qorg‘ancha qala, Qos minar, Qilish qal’a, Mexterqal’a, Taq minar turistik

obyektlarining infratuzilmasini takomillashtirish hamda harakatlanish vositalarini yaxshilash asosida xorijlik turistlarni hozirda eng ommalashib borayotgan cho'l landshafti, ekologik, rekreatsion turizm yo'nalishlari bo'yicha jalb qilish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasini hududiy rivojlantirishda kompleks yondashuv asosida agro, turistik, qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024 -yil 26 dekabrda 03-12-17-9651-sonli ma'lumotnomasi.) Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida turistik obyektlarning infratuzilmasini takomillashtirish hamda harakatlanish vositalarini yaxshilash asosida xorijlik turistlarni ommaviy turistik yo'nalishlar bo'yicha jalb qilish imkoni yaratilgan;

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (oldingi "Baday-to'qay" davlat qo'riqxonasi) - Sulton Uvays tog' tizmasi etagi va Qoratorov tog'ining o'ng tarafida, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan hududda xorijiy va mahalliy turistlar uchun ekoturlarni tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasini hududiy rivojlantirishda kompleks yondashuv asosida ekoturlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024 -yil 26 dekabrda 03-12-17-9651-sonli ma'lumotnomasi.) Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida katta ekologik salohiyatga ega hududlarda xorijiy va mahalliy turistlar uchun ekoturlarni tashkil etish imkoni yaratilgan;

Ellikqal'a tumanidagi Ayozqal'a va Tuproqqal'a, Buran qal'a, Burli Qal'a, Dumanqal'a, Jeldikqal'a – mayin shamolli qal'a, Kichik Qirqqiz qal'a, Qavatqal'aga asosan Xorazm viloyati orqali amalga oshuvchi xorijlik turistlar oqimini Nukus shahri orqali yo'naltirish asosida turistlarning ushbu maskanlar bo'yicha sayohatlari davomiyligini uzaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-

iyuldagi PQ-269-son “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024 -yil 26 dekabrda 03-12-17-9651-sonli ma‘lumotnomasi.)

Taxtakopir tumanidagi turistik obyektlarni turistik yo‘nalishlar tarkibiga kiritish, Xo‘jayli tumaniga tashrif buyurayotgan xorijlik turistlarning asosan Nukus shahridagi mehmonxonalarga joylashayotganligi holatini tumanda tadbirkorlarni keng jalb qilish orqali kichik mehmon uylari sonishi oshirish, mehmonxonalar va joylashtirish vositalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-anvardagi PQ-20-son «O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida Qoraqalpog‘iston Respublikasini hududiy rivojlantirishda kompleks yondashuv asosida mehmonxonalar va joylashtirish vositalari faoliyatini samarali tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024 -yil 26 dekabrda 03-12-17-9651-sonli ma‘lumotnomasi.) Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida muhim turistik obyektlarni turistik yo‘nalishlar tarkibiga kiritish, tumanlarda tadbirkorlarni keng jalb qilish orqali kichik mehmon uylari sonini oshirish, mehmonxonalar va joylashtirish vositalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari aks etgan 15 ta ish aprotasiyadan o‘tkazilgan bo‘lib, jumladan 5 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 10 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ilmiy ma‘ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e‘lon qilish uchun ilmiy jurnallarda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 5 ta, shu jumladan milliy jurnallarda 2 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning mazmuni kirish, uchta bo‘lim, xulosa, havolalar ro‘yxati va ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.